



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

STRATEGIES FOR TEACHING LEXICAL CHUNKS AND
COLLOCATIONS

Jo'rayeva Hilola Yusuf qizi.

Ingliz filologiyasining 1-bosqich talabasi.

Filologiya va xorijiy tillar,

Ilmiy rahbar: Mamadjanova Dildora Ulugbek qizi

Diplomat University, Toshkent.

hilolajorayeva628@gmail.com.

+99894 6282808

Annotatsiya: Til o'rganish jarayonida aksariyat o'rganuvchilar so'z boyligini oshirish maqsadida lug'atlardan foydalangan holda so'zlarni alohida yodlashga harakat qiladilar. Biroq, agar ushbu yodlangan so'zlar amaliyotda muntazam qo'llanilmasa, vaqt o'tishi bilan xotiradan ko'tariladi. Bundan tashqari, so'zlar muvaffaqiyatli yodlangan taqdirda ham, muloqot yoki dars jarayonida o'rganuvchilar ulardan o'ta sodda va sun'iy gaplar tuzishadi. Bunday nutq esa suhbat davomida tinglovchining e'tiborini tortmaydi va tabiiy eshitilmaydi. Shu sababli, ushbu maqolada til o'rganuvchilar uchun alohida so'zlarni emas, balki tayyor birikmali so'zlarni (leksik bloklarni) o'zlashtirish nutqiy ravonlik va kommunikativ samaradorlikka erishishda ancha samaraliroq yondashuv ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: so'z boyligi, mexanik yodlash, leksik birikmalar (lexical chunks), kollokatsiyalar, kommunikativ kompetensiya, nutqiy ravonlik.

Аннотация: В процессе изучения иностранного языка большинство учащихся пытаются расширить свой словарный запас путем механического заучивания отдельных слов из словарей. Однако, если эти слова не используются регулярно на практике, они быстро забываются. Более того, даже если слова успешно заучены, в процессе реального общения или на занятиях учащиеся часто строят из них слишком простые, примитивные предложения, которые не привлекают внимания собеседника и не обеспечивают естественность речи. В связи с этим в статье обосновывается, что изучение и использование устойчивых словосочетаний и лексических блоков (lexical chunks) является гораздо более эффективным методом для изучающих язык с целью достижения беглости речи и коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: словарный запас, механическое заучивание, лексические блоки, коллокация, коммуникативная компетенция, беглость речи.

Abstract. In the process of language learning, the majority of learners attempt to expand their vocabulary by memorizing individual words directly from dictionaries. However, if these memorized words are not actively put into practice, they tend to be forgotten over time. Furthermore, even when words are successfully retained, learners





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

often struggle during real-life communication or classroom discussions, constructing overly simplistic sentences that fail to engage the listener or sound natural. Consequently, this article demonstrates that acquiring and utilizing lexical chunks and collocations is a significantly more effective approach for language learners to achieve fluency and enhance communicative competence.

Keywords: *vocabulary, rote learning, lexical chunks, collocations, communicative competence, fluency*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish va til o'rganuvchilar soni har qachongidagidan ham yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Biroq til o'rganish amaliyotida eng ko'p uchraydigan dolzarb muammolardan biri — so'z boyligini oshirishda hamon an'anaviy mexanik yodlash uslubiga tayanib qolinayotganidir. Til o'rganuvchilar so'zlarni kontekstdan uzilgan holda, alohida lug'at ko'rinishida yodlashga juda ko'p vaqt va energiya sarflaydilar.

Afsuski, ushbu yondashuv kognitiv jihatdan samarasiz bo'lib, o'rganilgan leksika faqat qisqa muddatli xotirada saqlanib qoladi va vaqt o'tishi bilan tezda unutiladi. Bundan tashqari, so'zlar yod olingan taqdirda ham, real muloqot yoki dars jarayonida ularni faollashtirish va nutqqa joriy etishda jiddiy to'siqlar yuzaga keladi. O'rganuvchilar so'zning lug'aviy ma'nosini bilsalar-da, uni nutqiy kontekstga moslashtira olmaydilar. Buning natijasida esa nutqda sun'iylik, g'aliz gaplar va o'rinsiz to'xtalishlar ko'payib, nutqiy ravonlik hamda tabiiylik yo'qoladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI:

Til o'rganish jarayonida so'zlarni kontekstdan uzilgan holda, alohida-alohida yodlash ko'p hollarda biz kutgan ijobiy natijani bermasligi mumkin. Taniqli tilshunos Maykl Lyuis (Michael Lewis) 1993-yilda o'zining "*Leksik yondashuv*" (*The Lexical Approach*) nazariyasida: "*Til an'anaviy grammatika va alohida so'zlardan emas, balki tayyor bloklardan, ya'ni leksik birliklardan tashkil topgan*", degan g'oyani ilgari suradi. Muallifning fikricha, til o'rganuvchilarning muvaffaqiyati qancha ko'p so'z bilishida emas yoki grammatik qoidalarni mukammal qo'llay olishida emas, balki o'quvchining xotirasida qanchalik ko'p va **tayyor iboralar va leksik bloklar zaxirasi mavjudligida** hamda ularni nutqda namoyish eta olishidadir. Ushbu nazariy qarashlarni qo'llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, til o'rganuvchilar so'zlarni mexanik tarzda yodlaganlari sababli ularni xotirada saqlab qolishga qiynaladilar. Shu sababdan, tayyor leksik bloklarni yoki so'z birikmalarini muayyan kontekst doirasida eslab qolish va ulardan foydalanish ancha samaraliroq yondashuv hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA NATIJALARI:

Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda leksik birikmalarining rolini amaliy jihatdan tekshirish maqsadida maxsus tajriba o'tkazildi. Tadqiqot davomida o'quvchilar ikki guruhga ajratildi va ularning bir oy davomida so'z





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

boyligini o'zlashtirish darajasi kuzatildi. Tajribamda Pre-Intermediate (A2+) darajasiga ega bo'lgan 24 nafar o'quvchilar ishtirokida tashkil etildi.

Jadval

Baholash mezonlari	1-Guruh (alohida so'z yodlaganlar)	2-Guruh (Leksik yondashuv)
Yodlangan so'zlarni xotirada saqlash(Retention)	46%	70%
Kontekstda so'zlarni to'g'ri qo'llash (Accuracy)	38%	66%
Nutqiy ravonlik va tabiiylik(Fluency)	42%	78%

1-guruhga tarkibida so'z birikmalari va tayyor bloklar minimal darajada bo'lgan, asosan alohida leksik birlimlardan tashkil topgan matnlar berildi.

2-guruhga esa tarkibi boyitilgan leksik bloklar, tayyor iboralar va turg'un so'z birikmalaridan tashkil topgan matnlar taqdim etildi.

Bir oy davomida o'tkazilgan eksperiment (tajriba) yakunida har ikki guruh o'quvchilarining lug'at boyligini o'zlashtirish darajasi va nutqiy ravonligi maxsus test hamda og'zaki suhbat orqali qayta tekshirildi. Natijalar quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlandi:

Baholash mezonlari (*Kriteriyalar*) **1-Guruh** (Alohida so'z yodlaganlar) **2-Guruh** (Leksik blok/Kollokatsiya yodlaganlar)

Yodlangan so'zlarni xotirada saqlab qolish (*Retention*) 46% 70%

Nutqiy ravonlik va tabiiylik (*Fluency*) 42% 78%. Kontekstdan So'zlarni to'g'ri qo'llash 38% 66%(*Accuracy*)

Olingan statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy usulda, ya'ni so'zlarni lug'at ko'rinishida yodlash 1-guruh o'quvchilarida bir oydan so'ng so'zlarni xotirada saqlab qolishi bor-yo'g'i 46% ni tashkil etdi. Muloqot jarayonida ularning nutqiy ravonligi esa 42% dan yuqoriga ko'tarilmadi. Bunga sabab — o'quvchilar real muloqot paytida so'zlarni grammatik qoidalarga solishga va so'zlarni alohida qidirib, ularga ko'p vaqt sarflaganlar. 2-guruh o'quvchilarida natijalar sezilarli darajada farq qiladi. Kontekstdan olingan birikmalarni eslab qolish samaradorligi 70%, nutqiy ravonlik darajasi 78% ni va kontekstdan qo'llash 66% ko'rsatdi. Berilgan matn ichidagi birikmali so'zlarni va tayyor bloklarni muloqot jarayonida to'g'ri qo'llash bo'yicha ham sezilarli natijaga erishilgan. Til o'rganayotgan har bir o'quvchi qoliplashgan yoki kollokatsiyalarni o'rganishi nutqning ravon chiqishini va so'z boyligini oshirishga ko'proq hissa qo'shadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

"I go to school", "I do my homework" I go to school", kabi birikmalar o'quvchi nutqining monoton va ibtidoiy shaklda qolishiga sabab bo'ladi, chunki bunday yondashuvda o'quvchi faqatgina bitta so'zga tayanib qoladi va doimo sodda gap tuzishga ko'nikadi. Buning o'rniga leksik birikmalardan va tayyor qoliplardan foydalanish muloqot jarayonida anchagina foydalidir.

Masalan: *make a decision, pay attention, movie stars, bedtime reading, fully furnished, feel homesick, down payment, take out a mortgage, by the way, take an exam, take a picture, crime wave, child labor, natural disasters, food shortages, clean energy, developing countries, global warming*, kabi turg'un birikmalarni qo'llash o'quvchining nutqiy ravonligini va so'z boyligini sezilarli darajada oshiradi. Yana shuni aytish joizki, tajriba davomida o'quvchilar so'z yodlashdagi yangi "til o'rgatish metodikasi" orqali lug'at shaklida alohida yodlangan so'zlar bilan tayyor qoliplashgan so'zlardan foydalanish farqini yaqqol sezidilar. **"It is raining"** o'rniga — **"It is heavy rain"** yoki **"write lecture"** o'rniga — **"Take notes"** birikmalarini qo'llash orqali lug'at boyligini oshirish strategiyasi ancha samara beradi. O'quvchilar ko'pincha o'z ona tillaridagi iboralarni ingliz tiliga so'zma-so'z tarjima qilishga harakat qiladilar. Masalan, o'zbek tilida *"qaror qabul qilish"* birikmasini alohida so'zlar zanjiri orqali ifodalab, nutqda **"take decision"** yoki **"do a decision"** kabi kognitiv xatolarga yo'l qo'yadilar. Tajriba davomida esa ushbu tushunchalar yaxlit blok sifatida, ya'ni **"Make a decision"** tarzida o'rgatildi [2]. Real muloqot sifatini yaxshilash uchun turg'un birikmalar ma'noli kontekstlar ichida berildi: **"strong rain"** o'rniga — **"heavy rain"**, **"make homework"** o'rniga — **"do homework"**, **"learn words"** o'rniga — **"learn by heart"** kabi tayyor so'zlar va gaplar o'rtasidagi bog'liqlikni hosil qilish uchun vaqtni tejab beradigan tayyor bloklar, bog'lovchi birikmalar o'rgatildi: **"In the meantime"** — *shu vaqt ichida*, **"as a matter of fact"** — *aslini olganda*, **"on the other hand"** — *boshqa tomondan qaraganda*, **"to put it simply"** — *soddaroq qilib aytganda*. Iborali fellarda ham ko'pincha predloglar yoki (prepositions) bilan yaxlit leksik birikma hosil qilinishi tushuntirildi. Masalan, *Eat out, Turn on, Go away, Get in* kabi birikmalar gapda doin yaxlit semantik birkik sifatida birga keladi.[4]. Ushbu birikmalarni o'zlashtirish natijasida 2-guruh o'quvchilarida muloqot vaqtida grammatik moslashuviga alohida vaqt sarflamadilar va muloqot vaqtida qiyinchiliklarsiz qo'llay oldilar, bu esa qulay bo'ldi. Natijada o'rinsiz to'xtalishlar soni anchagina kamaydi. Yakuniy test tahliliga ko'ra ushbu guruhda so'zlarni xotirada saqlash (*Retention*) 70%, Nutqiy ravonlik (*Fluency*) 78% ni va ularni kontekstdan to'g'ri qo'llash aniqligi (*Accuracy*) 66% tashkil etdi.

Xulosa. O'tkazilgan tajriba natijasi shuni ko'ko'rsatadi, an'anaviy metodikadagi so'zlarni alohida, kontekstdan uzilgan holda mexanik yodlash usuli kognitiv jihatdan samarasiz bo'lib, nutqning g'aliz va sun'iy chiqishiga sabab bo'ladi. Leksik yondashuv nazariyasiga tayangan holda o'tkazilgan tajriba, tayyor leksik bloklar va kollokatsiyalarni o'rganish uchun anchagina samarali usul ekanligini isbotladi [1]. Tayyor birikmalar orqali ta'lim olgan guruhda so'zlarni xotirada saqlash (*Retention*) 70% ni, nutqiy ravonlik





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

(Fluency) 78% ni va kontekstda to'g'ri qo'llash (Accuracy) 66% ni tashkil etdi.

Demak, o'quvchilar so'z boyligini oshirish va nutqini tabiiy va ravon qilish jarayonida asosiy urg'uni alohida so'zlarga emas, balki tayyor nutqiy qoliplar va leksik birikmalarga qaratishlari lozim. Bu yondashuv darslar sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi va muhim poydevor bo'ladi.

REFERENCES

1. Lewis, M. (1993). The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. Hove: Language Teaching Publications.
2. Lewis, M. (1997). Implementing the Lexical Approach: How to Put Theory into Practice. Hove: Language Teaching Publications.
3. Lewis, M. (2000). Teaching Collocation: Further Developments in the Lexical Approach. London: Language Teaching Publications.

